Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

Xadicha Muxitdinova – p.f.d., professor

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (Tashkent, Uzbekistan)
E-mail: muxitdinovaxadichas@gmail.com
ORCID: 0009-0009-9608-3536

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘AT-IT TURK” ASARIDA TARIXIY ETNOGRAFIZMLARNING YORITILISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada etnografizmlar xalqlarning o‘tmishi va hozirgi turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari hamda milliy-madaniy xususiyatlari haqida ma’lumot beruvchi muhim etnografik manba sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it turk” asarida uchraydigan tarixiy etnografizmlar ko‘rib chiqiladi va ularning ilmiy ahamiyati ochib beriladi. Ushbu etnografizmlarning turkiy xalqlar turmush tarzini aks ettirishi, ularning mazmun-mohiyati va til tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada etnografizmlarning ma’noviy guruhlari aniqlanib, ular o‘zaro solishtiriladi va umumlashtiriladi. Shuningdek, mazkur birliklarning XI asrdagi qo‘llanish xususiyatlari hamda hozirgi o‘zbek tilida ishlatilish darajasi qiyosiy asosda yoritiladi. Natijada etnografizmlar til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi muhim manba sifatida ilmiy jihatdan asoslab beriladi va ularning tarixiy hamda zamonaviy ahamiyati izchil tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar. “Devonu lug‘at-it turk”, turkiy xalqlarning turmush tarsi, tarixiy etnografizmlar, etnografizmlarnini ma’noviy guruhlari, o‘zbek tilida qo‘llanishi, sinonimik variantlari.

Khadicha Mukhitdinova – DSc, professor
Uzbekistan State World Languages University (Tashkent, Uzbekistan)

THE TREATMENT OF HISTORICAL ETHNOGRAPHISMS IN MAHMUD AL-KASHGARI’S DĪWĀN LUGHĀT AL-TURK

Abstract. This article considers ethnographisms as important ethnographic sources that provide information about the past and present lifestyle, customs, traditions, and national-cultural characteristics of peoples. The study examines historical ethnographisms found in Mahmud Kashgari’s “Dīwān Lughāt al-Turk” and reveals their scholarly significance. The role of these ethnographisms in reflecting the way of life of Turkic peoples, as well as their content, meaning, and place in the language system, is analyzed. The article identifies and classifies semantic groups of ethnographisms, comparing and generalizing them within a unified framework. In addition, the usage features of these units in the 11th century and their application in modern Uzbek are discussed on a comparative basis. As a result, ethnographisms are substantiated as important sources that demonstrate the relationship between language and culture, highlighting their historical continuity and their relevance in contemporary linguistic and cultural studies.

Keywords: *Dīwān Luġhāt al-Turk*, lifestyle of Turkic peoples, historical ethnographisms, semantic groups of ethnographisms, usage in the Uzbek language, synonymous variants.

Хадича Мухитдинова – д.п.н., профессор
Узбекский государственный университет мировых языков (Ташкент, Узбекистан)

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ЭТНОГРАФИЗМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ “DEVONU LUG‘AT-IT TURK” МАХМУДА КАШГАРИЙ

Аннотация. В данной статье этнографизмы рассматриваются как важный этнографический источник, предоставляющий сведения о прошлом и современном образе жизни народов, их обычаях, традициях и национально-культурных особенностях. В исследовании анализируются исторические этнографизмы, представленные в труде Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-турк», и раскрывается их научная значимость. Рассматривается роль этих этнографизмов в отражении образа жизни тюркских народов, их содержание, значение и место в языковой системе. В статье выделяются семантические группы этнографизмов, проводится их сопоставление и обобщение. Кроме того, анализируются особенности их употребления в XI веке и их использование в современном узбекском языке на сравнительной основе. В результате делается вывод о том, что этнографизмы являются важным источником, демонстрирующим взаимосвязь языка и культуры, а также их историческую преемственность.

Ключевые слова. “Devonu lug‘at-it turk”, социальные житиё тюркских народов, исторические этнографизмы, семантические группы этнографизмов, их употребление в узбекском языке, синонимические варианты.

KIRISH

Ma’lumki, etnografizmlar muayyan xalqning qadimiy an’analari, urf-odatlarini, milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalovchi leksik birliklar bo‘lib, ular tarixiy va dialektal etnografizmlar turlarga ajratib o‘rganiladi. O‘zbek tilidagi tarixiy etnografizmlar haqida eng ko‘p ma’lumot beruvchi manba Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-ut turk” asari bo‘lib, ushbu lug‘at nafaqat qiyosiy-tarixiy lug‘at sifatida, balki turkiy xalqlarning XI asrdagi turmush tarzi lingvokulturologik manzarasini keyingi avlodlarga yetkazib beruvchi boy manba sifatida ham o‘ta muhim asardir.

“Devon” nodir etnografik manba bo‘lib, unda qayd etilgan etnografizmlar bizga turkiy xalqlarning o‘sha davrdagi yashash muhiti, ijtimoiy tuzilmasi, urf-odatlari va madaniy xususiyatlari haqida muhim ma’lumotlar beradi va, aytish mumkinki, XI asr turkiy dunyosining tirik tasvirini taqdim etadi (Tursunov, 2000). Mazkur noyob lug‘atni tarjima qilgan va nashrga tayyorlagan S.Mutallibovning ta’kidicha, “Devon”dagi so‘zlarning bir qismi til taraqqiyot qonunlariga muvofiq arxaik holga tushgan bo‘lsa ham, asosiy qismi butunlay o‘zgarishsiz yoki ba’zi o‘zgarishlar bilan bizgacha yetib kelgan. Shu bilan birga bir qancha yangi yasama so‘zlar yasalishiga manba bo‘lib xizmat qilgan (Koshg‘ariy, 1960).

MUAMMONING O‘RGANILISHI

O‘zbek tilida etnografizmlar masalasi lug‘atshunoslik, shevashunoslik sohalari bilan uyg‘un holda o‘rganilgan bo‘lib, ularni alohida etnografik manba sifatida tahlil qilish va mongorafik tadqiqotlar orqali ommalashtirish nafaqat o‘zbek tilining leksik boyligi, balki nutq madaniyati va amaliy uslubiyat sohalari rivojiga ham ijobiy ta’sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Etnografizmlar o‘zbek tilida dastlab dialekt, ya’ni shevalar tarkibida o‘rganilgan bo‘lib, bevosita etnografizmlarga bag‘ishlangan I.M. Jabborovning “Jahon xalqlari etnografiyasi” o‘quv qo‘llanmasi (Jabborov, 2015). B.M.Aminovning “Etnografiya olamiga sayohat” risolasi (Aminov, 2012) bilan boshlangan. O‘zbek tilshunosligida N.Mirzayevning “Til va tafakkur masalalari” risolasi (Amonturdiyev, 1990), N. Amonturdiyevlarning (1990) Qashqadaryo va Surxondaryo shevalari materiallari asosida, Y. Bobojonovning “Janubiy Xorazm etnografik leksikasi” (2018) R. R. Rahmatulloyevaning “O‘zbek to‘y va marosim foklori matnlarining inglizcha tarjimasida etnografizmlarining berilishi” (Amonturdiyev, 2021) mavzularida olib borgan tadqiqot ishlari muayyan hudud doirasida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ular ayni vaqtda etnografik planda yoritilgan maxsus tadqiqot ishi sifatida muhim amaliy ahamiyatga ega.

MUHOKAMA VA TAHLIL

Mahmud Koshg‘ariy ushbu so‘zlarni faqat leksik birlik sifatida izohlash bilan cheklanmay,

ushbu so‘zlar bilan bog‘liq maqollar, hikmatli iboralar yoki she’riy misollarni keltirib, ularning madaniy kontekstini ham yoritib berishga harakat qilgan. Ushbu etnografik ma’lumotlar tilshunoslar uchungina emas, balki tarixchilar, antropologlar, madaniyatshunoslar uchun ham XI asr turkiy xalqlarining yashash tarzi, ijtimoiy tuzilmasi, urf-odatlari va qadriyatlari haqida boy material beruvchi nodir manba ham hisoblanadi.

Mahmud Koshg‘ariy XI asrda turkiy tillarda mavjud bo‘lgan barcha qabilalar, ularga kiradigan urug‘larni sinchiklab o‘rganish jarayonida ushbu etnik xalqlarning tilida uchragan 100ga yaqin etnografizmlarning ma’nolarini izohlab ketgan. Devonda turkiy xalqlarning etnomadaniyatiga oid *alp, em, seb, qur, tavar, bichg‘uch, bushug‘, bulaq, bushg‘ut, chigil, chabg‘ut, kelin, munchuq, mug‘urg‘ach, sarmachuq, tutmach, jergo‘ch, bo‘sqach, tutg‘uch, tutg‘uch, sarinch, sarqach* kabi qator so‘zlar izohi keltirilgan. Ularning ayrimlari bugungi kunda ham o‘z ma’nosini to‘lig‘icha saqlab qolgan (masalan, *alp, em, kelin* kabi), ayrimlari ma’lum bir tovush o‘zgarishlariga uchragan (masalan, *seb (sep* – kelinlar sepi, moli), *munchuq (munchoq), tuzluq (tuzidish))* kabi, ko‘pchiligi esa bugungi kunda muomaladan chiqqan va arxaizmlarga aylangan (masalan, *bushug‘, bushg‘ut, bichg‘uch (qaychi), bulaq, chigil, chabg‘ut (to‘shak), tutmach, mug‘urg‘ach, sarmachuq, sarinch, sarqach, tutmach, jergo‘ch, bo‘sqach)* kabi. Masalan:

As – karkas qushi, burgut.

As – yirtqich hayvonlarga tyekkan bir parcha go‘sht, o‘limtik (Koshg‘ariy, 1960)

Ikkinchi ma’nodagi so‘z bugungi kunda qo‘llanmaydi, uning o‘rnida o‘limtik so‘zi faollashgan.

Ush – shunday, huddi

Ush – hozirgina, shu onda.

Ush – har qanday daraxt, shox, butoqning o‘rtasi, o‘zagi +++ misol; shuningdek, qush va otlarning dum suyaklariga yoki dum chiqadigan o‘rinlariga ham ush deyiladi (Koshg‘ariy, 1960).

Bugungi kunda o‘zbek adabiy tilida ush so‘zining birortasi ham qo‘llanmaydi. Afsus bilan qayd etish kerakki, uchinchi ma’nodagi ush so‘zi o‘rnida bugungi kunda o‘zbek tilida rus tilidan kirib kelgan “kopchik” so‘zi faol ishlatiladi.

Tutg‘uch - dastlabki ovqat (Koshg‘ariy, 1960).

Ushbu so‘z ham bugungi kunda qayd etilgan ma’nosini yo‘qotgan. Biroq o‘zbek tilida mazkur so‘z tutqich shaklida faollashgan va *eshik tutqichi* ma’nosini anglatadi. Devonda hozirgi kunda ma’nosi unutilgan, tarixiy so‘zlarga aylangan va hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanmaydigan etnografizmlar ham talaygina. Masalan:

bo‘sqach – yupqa non.

jergo‘ch – qilichga o‘xshatib yupqa qilib ishlangan enlik yog‘och, u bilan o‘choqdagi nonni aylantirib turiladi (Koshg‘ariy, 1960).

Devonda berilgan so‘zlar izohi ayrim so‘zlarning barcha ma’nolari ham bugungi kunda saqlanib qolmaganini kuzatish mumkin. Masalan: *ushaq: ushaq nen* –kichik, mayda narsa, shuningdek, yosh bolalarga ham ushaq og‘lan deydilar. O‘tinning maydasiga ham ushaq o‘tun deydilar. Bu so‘z birlik emas, jamlik holati uchun qo‘llaniladi (Koshg‘ariy, 1960). Izohlardan ko‘rinib turibdiki, *ushaq* so‘zining eng kichik, mayda narsa ma’nosini ifodalashi hozirgi kunda ham mavjud.. Masalan, *non ushoq*, hatto “*Nonning ushog‘i ham non*” maqolida bu ma’no yanada ta’kidlab beriladi. Hozirgi kunda hatto ushoq – uvoq shaklida ham qo‘llanadi. Keksa avlod tilida n so‘zlari ham uchraydi Biroq Koshg‘ariy keltirgan *ushaq o‘tin* ma’nosi bugungi kunda arxaiklashgan, ayrim dialektlarda saqlanib qolgan bo‘lmasa, adabiy tilda mutlaqo qo‘llanmaydi. Ushbu so‘zlar ma’nolarining keng tavsiflanishi, o‘sha davr tilida faol qo‘llanishini dalillaydigan maqollarni, she’rlardan parchalarni keltirilishi, hatto ba’zi izohlarda xalq etimologiyasiga oid ayrim ma’lumotlarning berib ketilishi etnografizmlarning o‘ziga xoslik jihatlarini ochib berishda katta ahamiyatga ega. Masalan:

Alp – botir, qahramon. *Alp jahida, alchiq jag‘ida* – “Botir dushman bilan to‘qnashganda, olishganda, yuvosh – tirishishda sinaladi” maqolidagi kabi.

Bu so‘z quyidagi parchada ham kelgandir:

Alp Er To‘nga o‘ldimu,
Esiz ajun qoldimu,
Ozlak ochin aldimu,
Emdi o‘rak jirtilur (Koshg‘ariy, 1960).

Yoki: *Tutmach* – turklarning mashhur ovqati. Bu ovqat Iskandar Zulqarnaynga nisbatli

ovqatdir. Shundayki, Iskandar zulmatdan chiqqach, oziqlari kamayib qolgan odamlar ochlikdan qo‘rqib, unga: bizni tutma ach, qo‘yib yubor, bizlar yurtimizga ketaylik deganlar. Iskandar bilimdonlar bilan kengashgan va ular shu ovqatni tayyorlaganlar. Bu ovqat gavdaga quvvat berib, yuzni qizartirar, tezda hazm bo‘lmas edi. Bu ovqat yeyilgach, suvidan ham ichilar edi. Turklar bu ovqatni ko‘rgach, “tutmach”deb atadilar. Asli tutma, ya’ni “och tutma” demakdir. Ikki a tushirilib, tutmach bo‘lgan. Ma’nosi “o‘zingni och tutma, shu ovqatni tayyorlab ye”demakdir (Koshg‘ariy, 1960).

Shu bois ushbu asar xalq folklor namunalarini saqlash va avloddan avlodga o‘tkazishda ham katta ahamiyatga ega. Sababi, asar yozilgan janr etnografiya fan tarmog‘ining ajralmas qismidir. Asarning eng ahamiyatga molik tomonlaridan bir shundaki, Koshg‘ariy turkiy qabilalar jamiyatining donishmandligi va ularning falsafiy qarashlarini aks ettiruvchi ko‘pgina maqollar, she’riy parchalar va iboralarni yozib qoldirgan. Asarda keltirilgan:

“At biterse yoldaş olar” – ot o‘lsa, yo‘ldosh piyoda bo‘ladi;

“Erdem başı tıl”- fazilat boshi til;

“Bir karga birle kış kelmes”- bir qarg‘a bilan qish kelmas;

“*Közden yırasa, köŋülden yırar*” – Ko‘zdan yiroq, ko‘ngildan yiroq kabi maqol va iboralar;

“Tegme er ölmes, toğsa ten öler” – odam emas, uning tanasi o‘ladi;

“*Kök teŋri asra yağız yer kılındıkta, ekin ara kişi oğlı kılınmış*” – ko‘k tangri va yer orasida inson yaratildi;

“*Alp Er Tunga öldi mü? İsiz ajun kaldı mu”* – Alp Er Tunga o‘ldimi, shavqasiz dunyo qoldimi? (Koshg‘ariy, 1960). kabi she’riy parcha va misralar;

“Kanı kan bile yuvılar” – qonni qon bilan yuviladi;

“*Suv körmiş çyeşyek dek*” – suv ko‘rgan gul kabidir (Koshg‘ariy, 1960) kabi frazeologik birliklar turkiy qabilalarning falsafiy qarashlarini aks ettiradi.

NATIJA

Mahmud Koshg‘ariy qayd etib o‘tgan etnografizmlarning semantik jihatlarini tahlil qilish bizga “Devon”dagi etnografizmlarni qo‘llanish xususiyatlariga ko‘ra ma’noviy guruhlash imkonini berdi. O‘zbek tilshunoslarining ayrim ishlarida “Devon”da uchragan etnoleksemalar semantic guruhlangan. Jumladan, N.R.Amonturdiyev o‘zining “Surxondaryo etnografizmlarining leksik xususiyatlari” tadqiqiga bag‘ishlangan ishida “Devon”da uchraydigan etnoleksemalarni leksikografik tahlil qilish asnosida etnografizmlarning quyidagi 10 ta tematikasini aniqlagan:

1) chorvachilikka oid etnografizmlar;

2) dehqonchilik bilan bog‘liq etnografik leksemalar;

3) milliy xalq o‘yinlari bilan bog‘liq etnografizmlar;

4) to‘y va u bilan bog‘liq jaraènlarni ifodalovchi etnografik leksemalar;

5) turli xil marosim va ular bilan bog‘liq etnografik leksemalar;

6) milliy taom nomini ifodalovchi etnografizmlar;

7) xalq maishiy haèti, uy-ro‘zg‘or buyumlari nomini ifodalovchi etnografizmlar;

8) ijtimoiy faoliyatga aloqador etnomadaniy leksik birliklar;

9) milliy kiyim va taqinchoq nomini ifodalovchi etnografizmlar;

10) qarindosh-urug‘chilikni ifodalovchi etnografizmlar (Amonturdiyev, 2021).

Biz Mahmud Koshg‘ariy “Devoni”da berilgan etnografizmlarni turli sohalarda qo‘llanilish doirasiga ko‘ra quyidagi 5 ta asosiy guruhlarga ajratishni maqsadga muvofiq deb topdik:

1. Uy-joy va yashash madaniyati bilan bog‘liq etnografizmlar: *ev* – uy, turar joy, *otağ* – karvonsaroy, *yorğan* – ipak ko‘rpa, *terek* – o‘yma naqshli yog‘och stol, *Çırağ* – yog‘och chiroq, *körpe* - gilam/kigiz, *yurt* – teridan yasalgan ko‘chma chodir, *sanduk* – sandiq, *ocaq* – o‘choq, *eşik* – deraza va h.z.

2. Kiyim-kechak va bezaklarni ifodalovchi etnografizmlar: *kaftan* - uzun ustki kiyim, *börk* – qabila belgisi bo‘lgan qalpoq, *kemzul* - ayollar ko‘ylagi, *yüzük* – uzuk, *bilezik* – bilaguzuk, *tuman* - erkaklar shimi, *kepenek* – chorvachilar uchun yengsiz kiyim, *kemer* – kamar, *Çizme* – etik, *peştemal* – yopinchiq va h.z.

3. Taomlar va ichimliklarni ifodalovchi etnografizmlar: *qawirma* - qovurilgan qo‘y go‘shti,

tutmaj - lag‘mon, *qımız* - ot suti ichimligi, *ayran* - suvli qatiq, *sütlâç* - sutli guruch, *boza* - arpa ichimligi, *qurut* - quritilgan qatiq, *Çörek* - yumshoq non va h.z.

4. Ijtimoiy marosimlar va urf-odatlarni ifodalovchi etnografizmlar: *toy* - nikoh to‘yi, *yug* - motam marosimi, *saçut* - kelin haqi, *bädük* - qurbonlik bayrami, *süyünç* - xushxabar sovg‘asi, *kökbörü* – o‘lja o‘yini – otliq sport turi, *toyğaq* - qabila ittifoqi, *yılğa* - yillik yig‘in, *aş* – marosim ziyofati, *qamçı* – qamchi va h.z.

5. Harbiy tizimni ifodalovchi etnografizmlar: *sü* - otliq qo‘shin, yaraq - qilich/nayza, *kalkan teri* – qalqon, *alp* – jangchi, *beg* - qabila boshlig‘i, *törü*- qabila qonuni, *tuğ* – bayroq, harbiy ramz, *ok o‘q* – kamon o‘qi, *küreş* - harbiy mashq, *Çavul* – qo‘riqchi va h.z.

Ma’lumki, Mahmud Koshg‘ariyning lug‘at tuzish usuli nihoyatda soddaligi va aniqligi, so‘zni turli misollar, sinonim, omonimlari vositasida izohlash orqali qo‘llanish jihatlariga ham oydinlik kiritib ketishi, ayni vaqtda ushbu so‘zdan yasalgan o‘zakdosh so‘zlarni ham tavsiflab ketishi bilan ajralib turadi. Etnografizmlarni tavsiflashda ham shu usul ustuvorligini ko‘rish mumkin. Masalan:

Em - em, davo, dori; davolovchisi. emchi deyilishi shundandir (Koshg‘ariy, 1960)

Devonning “Besh harflilar” qismida hatto shu so‘zdan hosil bo‘lgan fe’l shakllari ham izohlab ketiladi:

Emlashdilar – davolandilar, emlandilar. Balig‘lar emlashdilar – yaralar davolandi. (emlisho‘rlar, emlashmak) (Koshg‘ariy, 1960)

Devonda turkiy qabilalarning ijtimoiy turmush tarzida gender xususiyatlar haqida ma’lumot berar ekan, *ata (ota), ana (ona), ögül (o‘g‘il)* kabi qarindoshchilikni ifodalovchi so‘zlarni izohlash barobarida turkiy xalqlarda oilaviy aloqalar va munosabatlarning muhim o‘rin tutishini, ayollar xo‘jalik uy-ro‘zg‘or ishlarini boshqarishdagi, mahsulot ishlab chiqarishdagi ayollarning o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tadi (masalan, tarı (tariq) yetishtirish *“Tarı bolsa, aş bolur”)* (Koshg‘ariy, 1960).

Antropolog olim Peter Golden aynan turkiy qabilalar turmush tarzini o‘rganar ekan, ushbu qabilalarda yaxshi patriarxal hamkorlik yo‘lga qo‘yilganini, jamiyatda erkaklar va ayollar hamjihatlikda faoliyat olib borganliklari haqida ma’lumot beradi. Uning qayd etishicha, erkaklar harbiy yurishlar va siyosat ishlariga boshchilik qilsalar, ayollar oilada barqarorlikni saqlash va savdo-sotiq mahsulotlarini ishlab chiqarish ishlariga bosh-qosh bo‘lganlar (Golden, 1998). *Shuningdek, Koshg‘ariy devonida turkiy qabilalarda diniy marosimlarning islom ta’sirida yangicha shakllana boshlagani, shamanlarning ruhlar bilan aloqalari tasavvuf ilmi bilan bog‘liq fikrlar, Ko‘k Tangriga sig‘inish esa Ka’bani tavof qilish marosimlari bilan almasha boshlagani, qamlarm (shamanlar) o‘rniga axunlar (musulmonlar) kelgani haqida ma’lumotlar keltirilgani haqida ma’lumotlar ham mavjud. Peter Golden ta’kidicha, diniy maqomning sekinsekin o‘zgarib borgani turkiy madaniyat jamiyatining mustahkamligi va uyg‘unlashuviga xizmat qilgan* (Golden,1998).

Gyula Nemeth fikricha, devondahi ko‘plab folklor elementlarni islomga emas, balki shamanizmga oid ekanligi haqidagi qarashlarni ilgari surgan. Bu esa turkiy xalqlar madaniyatining eski davrlar bilan keyingi islomlashtirilgan davrlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi. Masalan, ko‘k tengriga sig‘inganliklari, **“***Kök tengri yok bolmasun, yağız yer yarılmasun! – Ko‘k tangri yo‘q bo‘lmasin, yer yuzi yorilmasin”* yoki shomonistik an’analarda marsiyalar **“***Kamım uçup barsa, kökke teng bolsa! – Shomonim uchib borsa, ko‘kka teng bo‘lsa*” shular jumlasidandir. Bu esa faqatgina madaniy jihatni o‘zida mujassam etganligini namoyon etibgina qolmasdan, turkiy jamiyatlarning zamon o‘tish bilan moslashuvchanligini ko‘rsatadi (Németh, 1959).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarixiy va milliy madaniy so‘zlar sifatida har bir xalqning alohida lug‘aviy qatlamini tashkil etuvchi etnografizmlar muayyan xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari haqida ma’lumot beruvchi ma’naviy, tarixiy va madaniy ko‘rsatkichlari hamdir. “Devon-u lug‘at-it turk” turkiy so‘zlar leksikonini arab tiliga tarjima qilishda so‘zlarning faqat lingvistik jihatinigina emas, balki tarixiy hamda madaniy kontekstni ham e’tiborga olgan. Ya’ni, turkiy so‘zlar uchun ijtimoiy va madaniy ahamiyatini inobatga olgan holda

izohlab yoritgan. Aynan shu yondashuv asarning ham lingvistik, ham etnografik manba sifatidagi qiymatini oshirib, ko‘p sohalar, tilshunoslik, sosiologiya, etnografiya kabi fanlar uchun ham muhim va qimmatli manbaga aylantirgan.

Mahmud Koshg‘ariy turmush uchun zarur bo‘lib kirgan asbob, ashyolarni ifodalovchi so‘zlarni o‘z asarida mukammal izohlab berar ekan, ayni vaqtda tilda mavjud so‘zlar o‘rnida boshqasini qo‘llashni zararli deb hisoblab, bunday holatlarni qattiq qoralagan. Masalan, turkiy tillarda *qo‘zaj* va *qumg‘on* so‘zlari bo‘lgani holda o‘g‘uzlarning forscha *oftova* so‘zini qo‘llashlarini aslo ma’qullamagan.

Ko‘rinadiki, Mahmud Koshg‘ariyning ushbu nodir asari o‘zining etnografik qarashlar va kuzatishlarga boyligi, geografik va iqtisodiy kontekstlarni ham o‘z ichiga olganligi, turkiy qabilalarining ekologik sharoiti va yashash uchun kurash bosqichlarini yoritishi bilan nihoyatda katta ahamiyatga molik.

ADABIYOTLAR

1. Tursunov, A. (2000). *O‘zbek xalqining etnografiyasi*. Toshkent: Fan.
2. Koshg‘ariy, M. (1960). *Devonu lug‘at-it turk* (1-jild). Toshkent: Fan.
3. Jabborov, M. (2015). *Jahon xalqlari etnografiyasi*. Toshkent.
4. Aminov, B. M. (2012). *Etnografiya olamiga sayohat*. Toshkent.
5. Mirzayev, N. (1986). *Til va tafakkur masalalari*. Toshkent.
6. Amonturdiyev, N. (1990). *Qashqadaryo va Surxondaryo shevalari materiallari asosida*. Toshkent.
7. Bobojonov, Y. (2009). *Janubiy Xorazm etnografik leksikasi*. Toshkent.
8. Rahmatulloyeva, R. R. (2018). *O‘zbek to‘y va marosim folklori matnlarining inglizcha tarjimasida etnografizmlarning berilishi*. Toshkent.
9. Amonturdiyev, N. R. (2021). *Surxondaryo etnografizmlarining leksik xususiyatlari* (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). Guliston.
10. Golden, P. B. (1998). *Nomads and sedentary societies in medieval Eurasia*. American Historical Association.
11. Németh, G. (1959). *The Uralic and Altaic languages: Their structure and development*. Indiana University Publications.